

XILMA-XILLIK

NORCHAYEV DONIYOR SUNNATULLA O'G'LI.

TDTr.U talabasi.

Davronov Ziyot Davronovich. Ilmiy raxbar.

Annotatsiya: Gobbs falsafasi mexanistik, metafizik tusda edi. Dekart «Men tafakkur qilaman, demak men yashayman» degan qoidasini keltirib chiqardi. Spinoza fikricha, tabiatda ikki substansiyaning bo‘lishi mumkin emas. Undan tashqari substansiya o‘zidan tashqaridagi sababga, xudoga bog‘liq emas, balki u o‘zining sababidir. Berkli, Yumlar sezgilardan nariga o‘ta olmadilar. Volter siyosiy erkinlik g‘oyasini xalq ommasi o‘rtasida targ‘ib qilgan.

Kalit so‘zlar: Gobbs, Dekart, Spinoza, Berkli, Yum, Volter.

Abstract: Hobbes's philosophy was mechanistic, metaphysical. Descartes came up with the rule: "I think, therefore I live." According to Spinoza, two substances cannot exist in nature. Besides, substance does not depend on a cause outside itself, on a god, but it is its own cause. Berkeley, the Humes could not go beyond the senses. Voltaire promoted the idea of political freedom among the masses.

Key words: Hobbes, Descartes, Spinoza, Berkeley, Hume, Voltaire.

Angliya materializmining ikkinchi vakili Tomas Gobbs /1588-1679/ bo‘lib, uning falsafiy qarashlari Bekonnikiga o‘xshardi. Bekonning dinga yondoshgan tomonlarini tuzatib, uni rivojlantirdi. Gobbs falsafasi mexanistik, metafizik tusda edi. Gobbs moddiy dunyonи bir-biridan real bilib, falsafaning predmeti shu olamni o‘rganishdir, deydi. Gobbs taraqqiyotni faqat miqdor o‘zgarishlaridir, harakat esa mexanistik tashqi turkti natijasidir deydi. U, moddalarning xossalari, sifati yorug‘liq, hid, rang, issiqlika xos bo‘lmastan balki tasavvurlarimizdan iborat, deydi. Gobbsning materialistik qarashlari uning

tafakkur bilan materiya haqidagi fikrda ko‘rinib turadi. Tafakkur materiyadan ajralgan holda bo‘lmaydi, degan edi, u.

Gobbs bilish nazariyasida moddiy dunyoning kishiga ta’sir qilishi natijasida hosil bo‘lgan hissiyotlar to‘g‘risida to‘g‘ri fikr bergen. Lekin, uning xatosi, tafakkur mexanistik funksiyani bajaradi ,deb izchil bo‘lman materializmga yo‘l qo‘yadi.

XVII asrda Fransiya Angliyaga nisbatan ancha orqada qolgan mamlakat edi. Demak, Fransiya falsafa sohasida ham Angliyaga nisbatan orqada edi. Lekin, Fransiya o‘ziga xos yo‘llar bilan rivojlandi.

Fransiyada rivojlangan falsafa dualistik xarakterga ega edi. Fransiyadagi dualistik oqim vakili Rene Dekartdir /1596-1650/. O‘zining “Metod to‘g‘risida mulohazalar” asarida bilish metodini yaratishga uringan.

Dekart o‘zining falsafasida matematika aksiomalariga va hatto «xudoning qudratiga» ham gumonsirash kerak, deydi. Tafakkur Dekart bo‘yicha, birdan bir voqelik hisoblanadi. U shuning uchun ham «Men tafakkur qilaman, demak men yashayman» degan qoidasini keltirib chiqardi. Tafakkurni materiyaga qarshi qo‘yadi. Bu narsa falsafaning bosh masalasini idealistlarcha hal qilishga olib keldi. Bilish nazariyasida asosiy metod qilib deduksiyani oladi. Ya’ni tafakkur umumiyyidan xususiyga qarab harakat qiladi va mantiqiy yo‘llar bilan haqiqatni ochishga imkon beradi.

Dekart falsafasidagi dualizm ong bilan materiyaning, tan bilan ruhning mustaqil yashashini isbotlashda o‘z ifodasini topadi. Dunyoning moddiyligini inkor etadi va dunyo ikki ruhiy va moddiy substansiyalardan iborat, deydi Dekart.

Dekart shunday kamchiligi bo‘lishiga qaramay u falsafa sistemasini yaratdi. Dekart fan sohasida yangi kashfiyotlar ochdi. Masalan, Quyosh sistemasini paydo bo‘lishi to‘g‘risidagi fikrlar ya’ni cheksiz olam havo, olov, yerga o‘xshash uch elementdan tashkil topganligi haqidagi fikrini olish mumkin.

Dekartning dualizmini tanqid qilish asosida Barux Spinoza (1632-1677) falsafa sistemasi vujudga keldi. Spinoza Gollandiya (Benedikt) burjuaziyasining

manfaatini ifodalaydi. Spinoza falsafa sistemasini Dekart rad etib, dunyoning asosida moddiy substansiya yotadi, deb e'tirof etadi.

Spinoza fikricha, tabiatda ikki substansiyaning bo'lishi mumkin emas. Undan tashqari substansiya o'zidan tashqaridagi sababga, xudoga bog'liq emas, balki u o'zining sababidir. Substansiya zamonda abadiy, makonda cheksizdir. Spinozaning substansiya to'g'risidagi fikri, cheksiz materiya haqidagi materialistik ta'limotdir. Lekin shunga qaramay Spinoza substansiya niqobiga o'rab diniy fikrni yurgizadi. Uning xudosi dindorlar xudosiga o'xshamaydi.

Spinoza fikricha, zaruriyat ta'sirida harakat qiluvchi xudo erkin irodaga ega emas va o'z oldiga hech qanday maqsad qo'ya olmaydi, bu narsa tabiatning o'zginasidir. Shu davrda vujudga kelgan sub'ektiv idealistlar / J. Berkli, D. Yum / dinga yangi yo'l ochib, materializmga qarshi fikrlarni ilgari surishga harakat qilishgan edi.

Berkli o'zining / 1710/ "Inson bilishining asoslari to'g'risida traktat" degan asarida inson bilishining ob'ektlarini ko'zdan kechiruvchi har bir kimsaga bu ob'ektlar yo haqiqatan sezgilar vositasi bilan idrok qilinadigan ideyalardan, yoki emotsiyalardan his va aql faoliyatini kuzatish natijasida olgan ideyalarimizdan ... nihoyat xotira yoki xayolot yordami bilan hosil qilingan ideyalardan iborat ekanligi ravshandir. Ko'rish, eshitish hidlash va boshqa sezgilar qo'shib bir narsani ifodasini beradi", – deydi.

Demak, Berkli fikricha, narsa "ideyalar yig'indisi"dan iborat ekan. Uning fikricha, bularni idrok qiluvchi narsa aql, ruh, jon umuman men mavjud bo'lib undan tashqarida mavjud bo'lishi mumkin emasdir. Berkli tabiatdagi hamma hodisa va narsa sezgilar yig'indisi / ideyalar kolleksiyasidan/dan iboratdir.

Berkli sub'ektiv idealizmining gnoseologik ildizi ob'ektiv, moddiy dunyoni absolyutlashtirish bilan uni sezgilar tassuroti orqali birlashishidadir. Lekin, Berkli ideya, sezgilar mavjud ob'ektlarning nusxasi in'ikosi ekanligini inkor qildi. O'zini sub'ektiv idealizm va solipsizmdan ayblanishidan himoya ham qiladi.

Berkli, Yumlar sezgilardan nariga o'ta olmadilar. Berkli va Yum solipsizmi idealistik ta'limotining eng ratsional ko'rinishidir.

Bu davr fransuz materialistlari dialektikani materialistik nuqtai nazaridan asoslashda juda katta hissa qo'shdilar, ayniqsa fransuz mutafakkir olimlari Lametri, Golbax, Gelvesiyalar shular jumlasidandir. Ijtimoiy davrning o'zi fransuz materialistlari oldiga shunday vazifani qo'ydi. Ular idealizmga, dingan qarshi chiqishda tabiatni materialistik asosda tushunish kerakligini birinchi masala qilib qo'ydilar.

Mari Fransua Arue (1694- 1778.) Fransuz yozuvchisi, psixolog, faylasufi, tanqidchisi, publitsisti, tarixchisi. Mari Fransua Aruening taxallusi Volterdir. Parij teatrining sahnalarida "Edip" tragediyasi shon-shuhrat keltirgandan so'ng ya'ni 1718 yildan boshlab shu taxallusni olgan. Volter notarius oilasida tug'ildi. Oilasi o'sha davrdagi aristokratlar davrasida yaxshi maqega ega edi. "Kryostno'y" otasi uni yoshligidan boshlab erkin fikrlashga o'rgatdi. Kollejda ta'lif oldirdi, lekin u otasi orzu qilgan yo'ldan bormadi. Natijada moddiy tomondan o'g'ilni otasi qo'llab-quvvatlamadi. Turmush tarzini yaxshilash maqsadida moliyaviy ishlarda qatnashdi. Bu bilan o'zining ijtimoiy va ijodiy faoliyatini ham yo'lga qo'ydi. Shaxsiy faoliyat natijasida, kundalik hayotda burjuaziya sinfini feodal tuzumi bilan kelisha olmasligini sezal boshlaydi. Shu bilan birga, diniy faoliyat sirasrorlari bilan yaqindan tanishadi. Kelajakda o'z davridagi feodal tuzum va diniy fanatizmga qarshi kurash boshlab yuboradi. Siyosiy erkinlik g'oyasini xalq ommasi o'rtasida tinmay targ'ib qiladi. Bu faoliyat hukmon doiralarida qoralanib, ikki marta (1717,1725) qamaladi. Angliyada surgunda (1726) bo'ladi. Umrining talaygina qismini surgunlikda o'tkazgan. Angliyada surgun bo'lмаган davrida, u mamlakatning madaniyati, ijtimoiy hayoti bilan yaqindan tanishadi. Fransiya hayoti bilan Angliya hayotini solishtirib ko'radi. Bu esa Volter faoliyatini revolyusionlashtiradi. Yirik asarlar yoza boshlaydi. Bular jumlasiga quyidagilarni olish mumkin: "Faylasufning maktublari" (1733), "Metafizika to'g'risidagi traktat" (1734), "Nyuton falsafasining asoslari" (1738), "Falsafa lug'ati" (1764-690), "Johil faylasuf" (1760), lirika, she'r, poema, drammalaridan: "Genriada", "Brut", "Orlean qizi", "Sezarning o'limi" va boshqalar. Bu asarlarning barchasida Volter o'z davrining buyuk ma'rifatparvari sifatida shakllandi. Uning bu faoliyati ayniqsa Rossiya ijobiliy baholandi. Rossiyada

Volterchilik oqimining kelib chiqishiga uning ta’limoti asos bo‘ldi. Volter faoliyatining ta’sirida rus ma’rifatparvarlari: P. P. Popovskiy, S. Ye. Dosniskiy, D. S. Anichkov, I. Ya. Tretyakov, A. Ya. Polenov, Ya. P. Kozelskiy, N. I. Novikov, D. I. Fonvizinlar ijtimoiy-siyosiy maydonga chiqganlar. Bu mutafakkirlar Rossiyadagi feodal krepostnoy tuzumiga qarshi faoliyat ko‘rsatganlar.

Baribir, Volterni xalq esdan chiqarmaydi. Cherkov va hokimiyat ruxsatisiz Parij yaqinidagi qabristonda dafn marosimi uyushtiriladi. Uning tirikligida 19 ta asarlar to‘plami nashr qilingan bo‘lsa, vafotidan so‘ng 70 tomlik to‘la asarlar to‘plami nashr etildi. 1791 yilda ta’sis majlisining qarori bilan uning jasadi solingan tobuti Parijning ulug‘ insonlar qabri Panteonda joylashtiriladi. U qo‘yilgan joyda insoniyatni aqlini rivojlantirishga qo‘sghan xizmatlari e’tirof etilib mavqeい haqida fikrlar yozilib qoldirilgan.

REFERENCES

1. Бахриддин Лутфуллаевич Салимов, Севинч Акмаловна Тоғаева. ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ПРОБЛЕМ СОЦИАЛЬНОГО СОЗНАНИЯ В ФИЛОСОФИИ. STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS. Vol. 1 No. 2 (2024). P. 52-55.
2. Бахриддин Лутфуллаевич Салимов, Шавкатова Сарвинаозхон Лазиз қизи. РАЗЛИЧНЫЕ АСПЕКТЫ ИСТОРИИ ФИЛОСОФИИ. STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS. Vol. 1 No. 2 (2024). P. 60-63.
3. Бахриддин Лутфуллаевич Салимов, Ўралова Дилноза Орифбой қизи. РОЛЬ ФИЛОСОФИИ В ФОРМИРОВАНИИ МИРОВОЗЗРЕНИЯ. STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS. Vol. 1 No. 2 (2024). P. 56-59.
4. Салимов, Бахриддин Лутфуллаевич, Абдусатторов, Фатхулла Хайрулла Ўғли, & Ғанибоев, Дилмурод Анваржон Ўғли (2023). ТЕНГЛИК ВА БАХТ ТУШУНЧАЛАРИНИНГ ИЖТИМОИЙ МУНОСАБАТЛАРДА ТУТГАН ЎРНИ. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3 (3), 16-21.

5. Салимов, Баҳридин Лутфуллаевич, Абдухоликов, Диёрбек Сайрбек Ўғли, & Комилов, Фарходжон Абдусамин Ўғли. (2023). ИЖТИМОЙ МУНОСАБАТЛАРНИ ШАКЛАНТИРУВЧИ ВА ТАРТИБГА СОЛИБ ТУРУВЧИ МУҲИМ ОМИЛЛАР. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3 (3), 41-46.
6. Салимов , Б. Л., Файзиев , С. Ф., & Қурамбаев , Ж. (2022). ЕВРОПА ОЛИМЛАРИНИНГ АСАРЛАРИДА ИНСОН ВА ИЖТИМОЙ МУНОСАБАТЛАРНИНГ ЎЗАРО АЛОҚАДОРЛИГИНИНГ ТАҲЛИЛИ. *Journal of Integrated Education and Research*, 1(6), 44–50.